



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2025-yil 25-avgust

431-4-0-Q/25

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**Qashqadaryo viloyati hokimligiga Shahrisabz tumani “Miraki” mahalla
fuqarolar yig‘ini hududidan “Dam olish bog‘lari, xiyobonlar hamda dam olish
zonalari” qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi boshlig‘ining 2025-yil 29-iyuldagi buyurtma xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi, vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari va kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Qashqadaryo viloyati hokimligiga Shahrisabz tumani “Miraki” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 1,0 gektar yer maydoni davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan “Dam olish bog‘lari, xiyobonlar hamda dam olish zonalari”ni loyihalashtirib qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.
3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.
4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlar xulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi "O'zGAShKLITI" DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda uch ish kuni davomida yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilasin.

6. Ushbu yer uchastkasining chegaralari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi tomonidan naturada (joyning o'zida) belgilanguniga hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar mazkur yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlansin.

7. Ushbu yer uchastkasida qurilish ishlarini boshlashga yoki davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan boshqa maqsadlarda foydalanishga faqat ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin yo'l qo'yiladi.

8. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

9. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

10. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining "gov.uz/oz/qashqadaryo" rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov va viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi boshlig'i N.Temirov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov